

**MUNAQQID IFODA USLUBIDA FAKT ILMIY MUSHOHADA OMILI
SIFATIDA**

(B.Nazarov ijodi timsolida)

Omonboy Boltaboyev Yo‘ldosh o‘g‘li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti*

***Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek adabiy tanqidchiligida B.Nazarov ifoda uslubi tadriji, fakt va ilmiy mushohada nisbati, ijod ruhiyatini yoritishda munaqqid talqini o‘rni, matnni nazariy sathda tekshirish usullari va badiiy asarni baholash mezonlari tahlillanadi. Unda adabiy ma‘lumot va g‘oyaviy-estetik munosabat uyg‘unligi, faraz va mantiqiy aqida bir-biriga o‘tib turishi omillari, dalildan foydalanish darajasi xususida mushohada yuritiladi. Aslida munaqqid ilmiy-ijodiy kredosi muammo tanlovi bilan izohlanadi.*

***Tayanch so‘zlar:** ifoda uslubi, fakt, ilmiy mushohada, faraz, ijod ruhiyati, nazariy talqin, matn, badiiy asar, maqsad, vazifa, tahlil malakasi, adabiy tanqidchilik, sath, tekshirish usuli, metodologiya, estetik baholash mezonlari, poetik mahorat, mohiyat.*

Har bir munaqqid muayyan ilmiy-nazariy talqin vositasida o‘z ifoda uslubini shakllantirishga intiladi. Adabiy faktdan to‘g‘ri foydalanish, ma‘lumot haqqoniyligi va ishonchliligi olim amaliy faoliyati miqyosini belgilaydi. Badiiy matnni baholash jarayonida muallif akademik rivoya va ijodiy munosabatni markazlashtiradi, salmoqli ilmiy farazni ilgari surishga intiladi. Mahorat qirralari ijodkor-san‘atkor-tahlilchi shaxsi jiplashuvini taqozolaydi. Zero, “adabiy tanqidning paydo bo‘lishi va rivojlanishida, avvalo, kitobxonning ijtimoiy estetik ehtiyojlari yetakchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki biror-bir badiiy asarni o‘qib chiqqan savodxon o‘quvchida o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish, qolaversa, muallif bilan fikrlashish istagi paydo bo‘ladi. Ana shu ma‘naviy ehtiyoj davrlar o‘tishi bilan adabiy tanqidchilikning yuzaga kelishiga, maxsus fan sifatida shakllanishiga sharoit tug‘dirgan. Adabiy-tanqidiy asarlarda badiiy asarning yutuq va kamchiliklari, ijodkorning badiiy mahorati haqida ilmiy mulohaza yuritilibgina qolmasdan, muayyan bir jamiyatning ijtimoiy manfaatlari ham aks etgan bo‘ladi”¹. Shunday ekan, adabiy tanqid jamiyat estetik qadriyatlariga uzluksiz ta’sir o‘tkazadi, did-saviyani tartibga olib turadi. Uzluksiz jarayonda moddiy tushuncha va ijodiy tasavvur ziddiyati hosil bo‘ladi, ma‘naviy-axloqiy talqin o‘z o‘lchamini o‘zgartiradi. Belgi, ohang va ma‘no yangilanishi estetik idrok o‘ziga xosligiga tayanadi. Aslida go‘zallik, hayrat, mantiq va falsafa yaxlitlashuvi tadqiqotchi nazariy qarashlarini ham muayyan tizimga soladi. B.Nazarov ilmiy talqinida izlanish, kashfiyot, qiyos, muqoyasa, nisbat hamda analogiya tahlil malakasini uyushtirishga xizmat qiladi. Unda masalaga ham adabiy, ham g‘oyaviy, ham estetik tashxis qo‘yish mantiqiy izchillik hosil qiladi, baholash mezonlari shaxs manfaati va ijtimoiy yo‘nalishga

¹ Yo‘ldoshev B. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023. – B. 5-6.

payvandlanadi:

Har bir xalq adabiyoti milliy ruh va milliy shakllarga ega bo‘ladi. Badiiy asardagi milliy ruh qahramon xarakterining tabiatida, qahramonlarning va muallifning fikrlash yo‘sinida, his-hayajonlarning namoyon bo‘lish tarzida, xalq obrazida, urf-odatlarining o‘ziga xosligida, an‘analarda, tarixiylikda, tabiat va qahramon harakat qiluvchi shart-sharoitlarda, hatto kiyim-kechak va portret kabi unsurlarda namoyon bo‘ladi. Milliy ruh, shartli ravishda, ichki (fikrlash yo‘sini va ichki dunyo) hamda tashqi (kiyim-kechak, portret, muhit va sharoit) belgilarga bo‘linishi mumkin². Adabiyotida tanqidiy tafakkur vositachilik roli, faraz va fakt nisbati, san‘at turlari o‘rtasida integratsiyalashuv jarayoni tabiati, adabiy tanqid paradigmasini tafovutlash, adabiy an‘analar hamda ilg‘or tajribani tekshirish, muallif konsepsiyasi va tadqiqotchi pozitsiyasini tayinlashga jiddiy e‘tibor beriladi. Joriy holatda olim nozik kuzatish va jonli mushohadasi badiiy asar nazariy xaritasini chizishga yo‘l ochadi.

Tanqidiy idrokda matni o‘zlashtirish jarayonida estetik idrok yangilanishi, birinchidan, ifoda va uslub takomilini ta‘minlaydi, ikkinchidan, munaqqid shaxsi va o‘zlashtirish estetikasi o‘ziga xosligini belgilaydi, uchinchidan, adabiy talqin muqobil kanonlarini hosil qiladi, to‘rtinchidan, o‘zgacha ilmiy yondashuvlarni vujudga keltiradi. Aslida usul, vazifa hamda maqsad birikuvi matn notekis harakatini boshqaradi. Unda shakl va mazmuni so‘z quvvati – anglash jarayoni davomiyligini sharhlaydi.

B.Nazarov Oybek adabiy tanqidiy faoliyatini XX asrning 20-yillariga oid O‘zbekistondagi tarixiy-adabiy jarayon bilan mustahkam bog‘lanishda o‘rganadi, yozuvchi bosib o‘tgan yo‘ldagi murakkabliklarni yoritishga alohida e‘tibor beradi. Oybek bu tarixiy-adabiy jarayonga jur‘at bilan kirib keldi. Dastlabki qadamlarda sho‘roviy luzumlarni, markscha-lenincha qarashlarni ilgari surishga intildi. Lekin, adabiy jarayon va badiiy asarlarga munosabatda adolat yo‘li – milliy adabiyot manfaatlarini himoya qilishga alohida e‘tibor berdi. Bu murakkabliklarni to‘g‘ri yoritishda B.Nazarovga, fikrimcha, Oybekning o‘zi, yanada to‘g‘rirog‘i, uning yangi davr o‘zbek adabiyoti, shuningdek, o‘zbek xalqi adabiy merosining muhim va dolzarb muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqotlari yordamga keladi³, - yozadi akademik I.Sulton. munaqqid faoliyatida davr ruhiyati asosiy omil, unda g‘oyaviy va estetik talab tengligi saqlanadi. Matn ijtimoiy salmog‘ini belgilash, unga haqqoniy baho berish, yutuq-kamchiliklarni xolis umumlashtirish tushuncha tabiatini belgilaydi. Unda adabiy jarayonni yaxlit baholash mezonlari o‘z in‘ikosini topadi.

F. G‘ulom she‘rlari ichida insonparvarlik pafosi nihoyatda tiniq va yorqin ifodalangan

² Nazarov B. Ijodning jon tomiri. –Toshkent. Tafakkur tomchilari, 2022. –B.35-36.

³ Armug‘on. –Toshkent: Tamaddun, 2017. – B. 5.

asarlardan biri sanaladi. Bu asarda farzandlarini frontga jo‘natib, talaba bilan qaytishini intiqlik bilan kutayotgan ota-onalar, sevikli mahbubalar, jami jigargo‘shalar qiyofasi sog‘inch alangalanib turgan umumlashma xalq obrazi darajasida yaratildi. Mana shu sog‘inch va umid alangalari g‘alabaga nisbatan ishonch bag‘ishladi, farzandlar yuragini isitib, yo‘lini yoritib turadi.

Zo‘r karvon yo‘lida yetim bo‘tadek,
Intizor ko‘zlarda xalqa-xalqa yosh.
Eng kichik zarradan Yupitergacha
O‘zing murabbiysan, xabar ber, quyosh.

She‘r mana shunday falsafiy chuqur, go‘zal va teran, serma‘no va purhikmat misralar bilan boshlanadi. Bu yerda faqat to‘rtlik yoxud misra emas, hatto deyarli har bir so‘zga katta badiiy ma‘no yuklangan. She‘ming bosh lirik qahramoni bir jihatdan shoirning o‘zi. Ikkinchi qahramon esa, shoirning sog‘ingan dilbandi, frontda jang qilayotgan o‘g‘li. Shu ma‘noda, asarning asosini zamon va makon jihatidan ham, unda bo‘lib o‘tayotgan voqyealar nuqtayi nazaridan ham, his-kechinmalardagi aniqlik va qahramonlar hayotda mavjuddigi, realligiga ko‘ra ham tarixiy haqiqat tashkil etadi. Hyech shubhasiz, she‘rni she‘r qilib turgan hayotiy tanachalar, bu G‘afur G‘ulom tabiatdek dilbar va go‘zal, hayotdek aziz va tilsimli donishmandlarcha mushohada, his-hayajonlaridan tug‘ilgan otalik sog‘inchlari⁴.

She‘r va uning nazariy tavsifida sog‘inch tuyg‘usi bo‘rtib turadi. Munaqqid jo‘shqinlik hamda ehtiros bilan tahlilga kirishib ketadi, Faraz (she‘r bosh lirik qahramoni bir jihatdan shoirning o‘zi. Ikkinchi qahramon esa, shoirning sog‘ingan dilbandi) asta-sekin hayotiy aqidadan poetik ifoda sari yo‘naltiriladi, ijodkor-tanqidchi tavsiya etayotgan mushohada o‘quvchi g‘ashiga tegmaydi, aksincha, kechinmadoshlik kayfiyatini ham qayta tiklaydi.

B.Nazarov ilmiy mushohadalarida fakt va adabiy ma‘lumot his-tuyg‘u hajmini umumlashtiradi, adabiy zavq va estetik qiymat bir butunlik hosil qiladi. Sog‘inch va ishonch, ezgulik va diyonat fojea vahmini bir qadar uzoqlashtiradi, aynan sezim tayanch markazi (sog‘inish) masala mohiyatini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Insoniyatni o‘ylantirayotgan global ma‘no manfaat va ehtiyojlar, maqsad va intilishlarni bir-biriga yaqinlashtiradi.

Umuman, B.Nazarov nazariy talqinida fakt muammo yaxlit yechimiga yo‘l ochadi, munaqqid ilgari surayotgan adabiy ma‘lumot va faraz mantiqan asoslangan, batafsil tahlil yordamida mohiyat kasb etadi. Mutaxassis dalilga ilmiy-ijodiy yondashadi, mushohada qatimida mantiqiy sillogizm ustuvorligiga urg‘u beradi. Muammo va uning talqini munaqqid har bir ilmiy talqinini bezaydi, sifat hamda darajani yetakchi mezon sifatida belgilagan olim asar mohiyati va mantig‘iga teran kirib borishga intiladi. Muallif har bir adabiy hodisaga jadal va izchil baho beradi,

⁴ Nazarov B. Ijodning jon tomiri. –Toshkent. Tafakkur tomchilari, 2022. –B.35-37.

kitobxon ilg‘ay olmagan qirralarni umumlashtiradi. Yuksak intellektual hozirlik va kuchli ijodiy eruditsiya Baxtiyor Nazarov ifoda uslubiga xos zarif fazilat, unda tahlil va talqin, ifoda va tasvir, tasavvur va taassurot birlashadi.

Adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev B. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Fan, 2023
2. Armug‘on. –Toshkent: Tamaddun, 2017.
3. Nazarov B. Ijodning jon tomiri. –Toshkent. Tafakkur tomchilari, 2022.
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.